

## TALABALARNING KASBIY YO'NALGANLIK VA O'ZINI BAHOLASHNING O'ZARO MUNOSABATINI TAHLIL ETISH

Mambetniyazova Bibinaz Sovet qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrası magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20126435>

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada talaba shaxsining muhim psixologik tarkibiy qismlari hisoblangan kasbiy yo'nalganlik va o'z-o'zini baholash tushunchalari, ularning mohiyati hamda o'zaro bog'liqligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Talabalarning o'quv faoliyatidagi motivatsion jarayonlar, ijtimoiy muhit, oila, pedagogik ta'sir va individual psixologik xususiyatlarning kasbiy shakllanishga ta'siri ilmiy asoslarda yoritib berilgan.

Shuningdek, maqolada talabalarning kasbiy kamolotida adekvat o'z-o'zini baholashning ahamiyati, noto'g'ri o'z-o'zini baholashning salbiy oqibatlari va psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari batafsil muhokama qilinadi. Bundan tashqari, talabalarda kasbiy yo'nalganlikning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, o'z-o'zini baholash darajasining kasbiy faoliyatga ta'siri hamda ularning o'zaro uyg'unligining shaxs kamolotidagi ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Psixologik tadqiqot, kasbiy yo'nalganlik, o'z-o'zini baholash, motivatsiya, adekvat baholash, shaxs kamoloti, oilaviy muhit, refleksiya, psixologik ta'sir, psixologik xususiyatlar.

## ANALYSIS OF THE INTERRELATIONSHIP BETWEEN STUDENTS' PROFESSIONAL ORIENTATION AND SELF-ESTEEM

**Abstract.** This scholarly article provides a scientific and theoretical analysis of the concepts of professional orientation and self-esteem, which are considered essential psychological components of a student's personality, along with their essence and interdependence. The influence of motivational processes in students' academic activities, the social environment, family, pedagogical influence, and individual psychological characteristics on professional formation is described on a scientific basis. The article also discusses in detail the importance of adequate self-esteem in students' professional development, the negative consequences of inaccurate self-esteem, and psychological support mechanisms. Furthermore, it reveals the factors influencing the formation of professional orientation in students, the impact of the level of self-esteem on professional activity, and the significance of their mutual harmony in personal development.

**Keywords:** Psychological research, professional orientation, self-esteem, motivation, adequate assessment, personal development, family environment, reflection, psychological influence, psychological characteristics.

## АНАЛИЗ ВЗАИМОСВЯЗИ МЕЖДУ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ НАПРАВЛЕННОСТЬЮ И САМООЦЕНКОЙ СТУДЕНТОВ

**Аннотация.** В данной научной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются понятия профессиональной направленности и самооценки, рассматриваемые как важные психологические компоненты личности студента, а также их сущность и взаимосвязь. На научной основе освещается влияние мотивационных процессов в учебной деятельности, социальной среды, семьи, педагогического воздействия и индивидуальных психологических особенностей на профессиональное становление студентов. В статье также подробно обсуждается значение адекватной самооценки в достижении профессиональной зрелости, негативные последствия неадекватной самооценки и механизмы психологической поддержки.

Кроме того, раскрываются факторы, влияющие на формирование профессиональной направленности у студентов, влияние уровня самооценки на профессиональную деятельность и значение их гармоничного сочетания в развитии личности.

**Ключевые слова:** Психологическое исследование, профессиональная направленность, самооценка, мотивация, адекватная самооценка, развитие личности, семейная среда, рефлексия психологическое воздействие, психологические особенности.

## KIRISH

Hozirga kelib ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri yuqori malakali, mustaqil fikrlaydigan va kasbiy jihatdan yetuk mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Bu jarayonda talabalarning kasbga yo'nalganligi va o'z-o'zini baholashi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki shaxsning o'ziga bergan bahosi uning kasb tanlashiga, ishiga bo'lgan munosabatiga va muvaffaqiyat darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Talabalik yillari inson hayotidagi muhim bosqich bo'lib, aynan shu davrda kasbiy o'zlikni anglash, o'zini idrok etish va shaxs sifatida shakllanish jarayonlari eng faol kechadi. Shu bois kasbiy yo'nalganlik va o'z-o'zini baholash o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish dolzarb ilmiy masaladir. Talabalarni kasbga yo'naltirish va ularning o'z-o'zini baholashi masalasi psixologiya va pedagogika sohalarida eng ko'p o'rganilgan muammolardan sanaladi.

Mazkur masala turli ilmiy yondashuvlar doirasida tahlil qilinib, shaxs kamolotining muhim omili sifatida talqin etiladi. Avvalo, kasbga yo'nalganlik tushunchasi shaxsning kasb tanlashga bo'lgan ongli munosabati, qiziqishlari, ehtiyojlari va motivlari tizimi sifatida ta'riflanadi. Shu nuqtai nazardan, Yevgeniy Klimov kasbiy yo'nalganlikni shaxsning mehnat faoliyatiga ichki tayyorgarligi va kasbiy moslashuvi darajasi bilan bog'liq holda tahlil qiladi. U kasb tanlash jarayonida individual psixologik xususiyatlar, qiziqishlar va qobiliyatlarni uyg'unlashtirish muhimligini ta'kidlaydi. Xuddi shuningdek, Donald Super ishlab chiqqan kasbiy rivojlanish nazariyasida ham shaxsning kasbiy o'sishi bosqichma-bosqich kechadigan jarayon sifatida qaraladi. Shaxs psixologiyasida o'z-o'zini baholash masalasi markaziy o'rin tutadi. Uilyam Jeyms o'z-o'zini baholashni insonning muvaffaqiyatlari va intilishlari o'rtasidagi nisbat sifatida ta'riflaydi. Bu yondashuvga ko'ra, shaxsning o'zini qanday baholashi uning hayotiy maqsadlari va ularga qay darajada erishganiga bog'liq bo'ladi.

Kasbiy yo'nalganlik shaxsning muayyan bir kasbga bo'lgan qiziqishi, intilishi, motivatsiyasi va tayyorgarligi bilan tavsiflanadi. Bu jarayon insonning hayotiy maqsadlari, qadriyatlarini va individual psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uzoq muddatli rivojlanish bosqichlarini qamrab oladi. O'z-o'zini baholash esa shaxsning o'z salohiyati, qobiliyatlari, bilimi va ko'nikmalarini qay darajada idrok eta olishi bilan belgilanadi.

Talabaning o'zini to'g'ri baholay olishi uning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi, muvaffaqiyatga erishishi va kasbiy yuksalishining muhim omilidir. Ko'plab psixologik tadqiqotlarda kasbiy yo'nalganlik va o'z-o'zini baholash o'rtasidagi bog'liqlik muhim ilmiy muammo sifatida o'rganilgan. Zero, o'zini anglash darajasi yuqori bo'lgan talabalar kasbiy maqsadlarini aniq belgilab oladi, qiyinchiliklarni yengib o'tishga intiladi va bo'lajak faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashadi. Aksincha, o'ziga past yoki haddan tashqari yuqori baho berish holatlari kasb tanlashda xatoliklarga, motivatsiya pasayishiga va psixologik muammolarga olib kelishi mumkin.

Hozirda oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida kasbiy moslashuv, mustaqil qaror qabul qilish va o'z imkoniyatlarini xolis baholash bilan bog'liq muammolar tez-tez uchrab turadi. Bu esa, o'z navbatida, talabalarning kelgusi kasbiy faoliyatida bir qator qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu sababli, kasbiy yo'nalganlik va o'z-o'zini baholash o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tahlil qilish ham ilmiy- amaliy jihatdan eng dolzarb masalalardan biridir.

Morris Rozenberg o'z-o'zini baholashni shaxsning o'ziga nisbatan umumiy ijobiy yoki salbiy munosabati deb ta'riflaydi. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'z-o'zini yuqori baholaydigan talabalar faolroq, tashabbuskorroq va kasbiy jihatdan muvaffaqiyatliroq bo'lishga moyildir. O'z-o'zini baholash va shaxsiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni Abraham Maslou ham o'zining ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasida asoslab bergan. Unga ko'ra, inson o'zini hurmat qilish va qadrlash ehtiyojlari qondirilgandagina o'z-o'zini aktuallashtirish bosqichiga erishadi. Bu esa kasbiy yuksalish va shaxsiy salohiyatni ro'yobga chiqarish bilan bevosita bog'liq. Mahalliy va MDH olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham kasbiy yo'nalganlik va o'z-o'zini baholashning o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi. Ularga ko'ra, talabalarning kasbiy shakllanishi jarayonida ijtimoiy muhit, ta'lim sifati, pedagogik yondashuvlar va psixologik qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi talabalarning kasbiy yo'nalganligi va o'z-o'zini baholash darajasi o'rtasidagi korrelyatsiyani aniqlashdan iborat. Tadqiqot obyekti — oliy ta'lim muassasalari talabalari, predmeti esa — ularning kasbiy yo'nalganligi va o'z-o'zini baholashi o'rtasidagi bog'liqlikdir.

Kasbiy yo'nalganlik — shaxsning muayyan kasbiy faoliyatga bo'lgan ichki qiziqishi, intilishlari va ehtiyojlar tizimi bilan bog'liq murakkab psixologik hodisadir. U insonning hayotiy maqsadlari, qadriyatlari va shaxsiy salohiyatining muayyan kasbiy soha bilan uyg'unlashuvi natijasida shakllanadi. Talabalarda kasbiy yo'nalganlikni rivojlantirish oliy ta'lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biri sanaladi. Kasbiy yo'nalganlikning shakllanishida shaxsning qobiliyatlari, oilaviy muhit, ta'lim tizimi, ijtimoiy ehtiyojlar va mehnat bozori talablari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Talaba kasb tanlash jarayonida o'z qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga olib qaror qabul qiladi. Agar bu qaror ichki motivatsiyaga asoslangan bo'lsa, talabaning kasbiy faoliyatiga nisbatan munosabati ijobiy shakllanadi. Psixologik nuqtayi nazardan, kasbiy yo'nalganlik motivatsion, emotsional va kognitiv komponentlardan tashkil topadi. Motivatsion komponent talabaning kasbga bo'lgan ehtiyoj va intilishlarini ifodalasa, emotsional komponent uning kasbga bo'lgan hissiy munosabatini bildiradi. Kognitiv komponent esa, o'z navbatida, talabaning kasb haqidagi bilim va tasavvurlarini qamrab oladi. Ushbu komponentlarning uyg'un rivojlanishi kasbiy shakllanishning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlaydi. Talabalik davri inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biridir, chunki aynan shu davrda shaxsning kasbiy o'zligi shakllanadi.

Talabada bo'lajak kasbi haqida aniq qarashlar paydo bo'ladi, u kasbiy qadriyatlarni o'zlashtiradi va kasbiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorlana boshlaydi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirish ishlari tizimli tashkil etilishi zarur. Kasbiy yo'nalganlikning yuqori darajasi talabaning o'quv faoliyatidagi ishtirokini oshiradi. Bunday talabalar o'qishga mas'uliyat bilan yondashadi, mustaqil izlanishga intiladi va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga harakat qiladi. Natijada ular nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham muvaffaqiyatli egallaydi. Aksincha, kasbiy yo'nalganlikning sust shakllanganligi talabaning o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishi pasayishiga olib keladi. Bunday vaziyatda talaba kasb tanlashda ikkilanishi, o'z qobiliyatlariga ishonchsizlik bildirishi yoki kelajakdagi faoliyati uchun aniq maqsadlar qo'ya olmasligi mumkin.

Bu esa psixologik zo'riqishga, motivatsiyaning pasayishiga va ta'lim samaradorligining tushib ketishiga olib kelishi mumkin. Kasbga yo'naltirishni shakllantirishda o'qituvchilarning o'rni ham benihoya kattadir. O'qituvchi talabaning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashi, uning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashishi hamda kasbiy faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirib berishi lozim. Bundan tashqari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish talabalarni kasbiy hayotga yanada yaqinlashtiradi. Tadqiqotda nazariy (ilmiy adabiyotlar tahlili, umumlashtirish) va empirik (so'rovnomalalar, testlar, kuzatuv, intervyular) usullardan foydalanildi. Xususan, o'z-o'zini baholash darajasini aniqlashda Morris Rozenbergning "O'z-o'zini baholash shkalasi", kasbga yo'naltirishni baholashda esa Yevgeniy Klimov metodikasi qo'llanildi. O'z-o'zini baholash — bu shaxsning o'z qobiliyatlari, salohiyati, bilimlari va xulq-atvoriga bo'lgan munosabatini aks ettiruvchi psixologik hodisadir. U insonning o'z-o'zini anglash jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, shaxs faoliyati va ijtimoiy munosabatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'z-o'zini baholashning rivojlanishi, ayniqsa, universitet yillarida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu davrda yoshlar mustaqil qaror qabul qilishga, kasbiy maqsadlarni belgilashga va o'z hayot yo'lini tanlashga intiladi. Psixologiyada o'z-o'zini baholash adekvat, past va yuqori darajalarga ajratiladi. Adekvat o'z-o'zini baholash insonning o'z qobiliyatlarini haqqoniy baholashi bilan tavsiflanadi. Bunday talabalar o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini yaxshi biladilar, xatolarini tan oladilar va o'z ustida ishlashga harakat qiladilar. O'ziga past baho berish esa, aksincha, o'ziga ishonchsizlik, qo'rquv va tashabbuskorlikning yetishmasligida namoyon bo'ladi. Haddan tashqari yuqori o'z-o'zini baholash o'zining haqiqiy qobiliyatlarini noto'g'ri baholash va o'ziga ortiqcha ishonish bilan xarakterlanadi. Talabalarining o'z-o'zini baholashi ko'plab omillar ta'sirida shakllanadi. Bu jarayonda oiladagi tarbiya, tengdoshlar bilan munosabatlar, o'qituvchilarning baholari, o'qishdagi muvaffaqiyatlar va ijtimoiy tajriba muhim rol o'ynaydi. Masalan, bolaligidan qo'llab-quvvatlanadigan muhitda o'sgan yoshlarda odatda o'ziga nisbatan ijobiy tasavvur shakllanadi.

Aksincha, doimiy tanqid va bosim ostida tarbiyalangan shaxslarda o'ziga nisbatan past baho shakllanib qolishi mumkin. O'z-o'zini baholash talabaning motivatsiyasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'z qobiliyatlariga ishongan talabalar yangi bilimlarni egallashga faol intiladilar, qiyinchiliklardan qo'rqmaydilar va muvaffaqiyatsizlikni vaqtinchalik holat sifatida qabul qiladilar. Kasbga yo'naltirishni shakllantirishda o'z-o'zini baholashning o'rni juda katta.

Agar talabalar o'z qobiliyatlarini haqqoniy baholay olsalar, ongli ravishda kasb tanlay oladilar. Masalan, o'zining muloqot qobiliyatini yuqori baholagan talaba pedagogika, menejment yoki psixologiya kabi sohalarga moyillik ko'rsatadi. O'ziga past baho berish kasbga yo'naltirishning sust rivojlanishiga olib keladi. Bunday talabalar o'z imkoniyatlariga shubha bilan qaraydilar, tashabbus ko'rsatishdan qo'rqadilar va kasbiy rivojlanishga yetarlicha intilmaydilar. Natijada, ular o'z qobiliyatlariga mos kelmaydigan kasbni tanlashi yoki umuman o'z oldiga biror kasbiy maqsad qo'ya olmasligi mumkin. Haddan tashqari yuqori o'z-o'zini baholash ham salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bunday vaziyatda talaba o'z qobiliyatlariga ortiqcha baho beradi va yetarli tayyorgarliksiz murakkab vazifalarni bajarishga urinadi. Bu esa, o'z navbatida, muvaffaqiyatsizlikka uchraganda kuchli ruhiy iztirobga olib kelishi mumkin. Kasbiy yo'nalganlik va o'z-o'zini baholash o'rtasidagi bog'liqlik motivatsiya orqali ham namoyon bo'ladi. O'ziga ijobiy baho beradigan talabalar ichki motivatsiyaga ega bo'lishadi. Ular o'qishni yaxshi ko'radi, kasbiy rivojlanishga qiziqadi va mustaqil ishlashga intiladi. O'z-o'zini past baholash esa tashqi motivatsiyaning ustun bo'lishiga olib keladi.

Talabalarning o'z-o'zini baholashi ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ham ta'sir ko'rsatadi. O'ziga ishongan talaba yangi ko'nikmalarni o'rganishga faol kirishadi, amaliy mashg'ulotlarda ishtiyok bilan qatnashadi va o'zlashtirgan bilimlarini amalda qo'llashdan qo'rqmaydi. Natijada ularning kasbiy salohiyati tezroq rivojlanadi. Kasbiy yo'nalganlik va o'z-o'zini baholashning uyg'un rivojlanishi talabaning psixologik moslashuviga ham yordam beradi.

Bunday talabalar jamoada samarali ishlay oladi, muloqotga ochiq bo'ladi va ijtimoiy muhitga tez moslashadi. Bu ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyat qozonish imkoniyatlarini oshiradi. Aksincha, o'z-o'zini past baholaydigan talabalar qiyin vazifalardan qochishga va muvaffaqiyatsizliklarni shaxsiy zaiflik sifatida qabul qilishga moyil bo'ladi.

Talabalarda o'z-o'zini baholashni shakllantirishda refleksiya jarayoni muhim ahamiyatga ega. Refleksiya — bu shaxsning o'z faoliyatini tahlil qilishi, harakatlarini baholashi va xulosalar chiqarishi jarayonidir. Refleksiv ko'nikmalari rivojlangan talabalar o'z ustida ishlashga, shaxsiy va kasbiy o'sishga intiladi. O'z-o'zini baholash va hissiy holat o'rtasida ham yaqin bog'liqlik mavjud. O'ziga past baho berish ko'pincha xavotir, tushkunlik va ruhiy zo'riqish bilan birga kechadi. O'z-o'zini me'yorida baholashning yuqori darajasi esa psixologik barqarorlikni, ijobiy kayfiyatni va stressga chidamlilikni ta'minlaydi. Psixologik treninglar, motivatsion suhbatlar va individual maslahatlar talabalarning o'z-o'zini baholashini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, o'quv jarayonida rag'batlantirish, konstruktiv fikr-mulohaza bildirish va ijobiy pedagogik muhit yaratish ham talabaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Kasbiy yo'nalganlikni rivojlantirishda motivatsiya, oilaviy muhit, pedagogik ta'sir, ijtimoiy omillar va individual psixologik xususiyatlar muhim rol o'ynaydi.

Talabalarni kasbiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, psixologik treninglar tashkil etish, refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish va amaliy faoliyatni kuchaytirish ularning kasbiy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, talabalarning kasbiy yo'nalganligi va ularning o'z-o'ziga baho berish darajasi o'rtasida yaqin va bevosita bog'liqlik mavjud. Xususan, o'ziga adekvat va yuqori baho bera oladigan talabalar o'z kasbiy maqsadlarini aniq belgilay oladi, imkoniyatlariga ishonadi, shuningdek, faollik va tashabbuskorlik ko'rsatadi. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishish ehtimolini oshiradi.

Aksincha, o'ziga past baho berish kasbiy noaniqlik, ikkilanish va sustlikka olib kelishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zini o'zi baholash talabaning rag'batini, psixologik moslashuvi hamda kasbiy malakasining rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Zero, o'ziga past baho berish ishonchsizlikka, tashabbusning so'nishiga va kasbiy ikkilanishlarga sabab bo'lsa, o'ta yuqori baho berish esa haqiqiy imkoniyatlarni noto'g'ri idrok etishga olib keladi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida talabalarda me'yoriy o'zini o'zi baholash ko'nikmasini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Sa, Bidyadhar, et al. "The relationship between self-esteem, emotional intelligence, and empathy among students from six health professional programs." *Teaching and learning in medicine* 31.5 (2019): 536-543.
2. Min, Jisun, Hyunlye Kim, and Jaeyong Yoo. "Effects of self-esteem, problem-solving ability, and professional nursing values on the career identity of nursing college students

- in South Korea: a cross-sectional study." *International Journal of Environmental Research and Public Health* 18.16 (2021): 8531.
3. Figen, A., and D. Avci. "Correlation between educational stress and professional self-esteem of nursing students." *International Journal of Caring Sciences* 13.2 (2020): 1081-1088.
  4. Hedidane, Khadra, and Mounia Maifi. "Anxiety about the professional future in relation to self-esteem with 2nd year master students majored in counseling and orientation." *مجلة الروائز* 6.2 (2022): 347-360.
  5. Litoiu, Nicoleta. "THE LEARNING PROFESSION: THE CORRELATION BETWEEN STUDENT'S SELF-ESTEEM AND THE SUCCESS OF LEARNING-EMPIRICAL STUDY." *Journal of Innovation in Psychology, Education and Didactics* 19.2 (2015): 189-198.